

## SHAXSNING IJTIMOIY TARMOQLARDAGI NOMODDIY BOYLIKALARINI HUQUQIY HIMoya QILISH MASALALARI

**Abduraxmonova Ruxsora Sobir qizi**

Robert Walters Angliyani kompaniyasida

Xalqaro Hamkorlik bo‘limida yetakchi mutaxassis

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxsning ijtimoiy tarmoqlardagi nomoddiy boyligini huquqiy himoya qilish masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada keltirilgan “ijtimoiy tarmoqlar”, “shaxsning ijtimoiy tarmoqlardagi nomoddiy boyliklarini” tushunchalariga alohida ta’riflarni umumlashtirilib, mavzuning dolzarbliji xususida fikrlar yuritiladi. Mazkur tezis mavzusi yuzasidan tegishli ilmiy va rasmiy adabiyotlardagi fikrlar umumlashtirilib, mavjud muammo yuzasidan taklif hamda tavsiyalar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy tarmoq, internet, nomoddiy boylik, qonunchilik.

**Annotation.** This article will thoroughly analyze the issues of legal protection of the intangible wealth of an individual in social networks. Also, opinions are focused on the relevance of the topic, summarizing separate definitions of the concepts of “social networks”, “intangible assets of a person in social networks”, which are presented in the article. Opinions in the relevant scientific and official literature on the topic of this thesis are summarized and suggestions and recommendations are made on the existing problem.

**Keywords:** Social Network, internet, intangible wealth, legislation.

Ma’lumki, shaxsning ijtimoiy tarmoqlardagi nomoddiy boyliklarini huquqiy himoya qilish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ushbu muammoni atroflicha tahlil qilish uchun dastlab, “ijtimoiy tarmoqlar”, “shaxsning ijtimoiy tarmoqlardagi nomoddiy boyliklarini” tushunchalariga alohida

to‘xtalib o‘tamiz. Intellektual mulk mavzusi va undan foydalanish har doim muallif va ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari o‘rtasida ziddiyatni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy tarmoqlar insonning asosiy huquqlaridan biri bo‘lgan fikr va so‘z erkinligini ta’minlash uchun yaratilgan<sup>1</sup>, - deydi Anton Ivanov. Ijtimoiy tarmoqdagi axborot va intellektual mulk huquqlari qisman monetizatsiya qilinishi mumkin, biroq ijtimoiy tarmoqlardagi mulkiy munosabatlar foydalanuvchilar o‘rtasida hamda foydalanuvchilar va tarmoq egalari o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning xususiy huquqiy xususiyati tufayli fuqarolik qonunchiligi doirasida tartibga solish qiyin.

Ilmiy adabiyotlarga yuzlanadigan bo‘lsak “ijtimoiy tarmoqlar” - bu internet orqali foydalanuvchilarning bir-biri bilan muloqot qilish, ma’lumot almashish, ta’lim, madaniyat, markazlashtirilmagan media va boshqa maqsadlar uchun foydalaniladigan platformalarni qamrab oladi. Ijtimoiy tarmoqlarning asosiy xususiyatilari quyidagilardan iborat:

- Foydalanuvchilarning profillari, ya’ni o‘zlari haqida ma’lumot, rasm, qiziqishlar, tanlangan til va boshqa sozlamalarni saqlab turish:

- Foydalanuvchilarning bir-biri bilan aloqa qilish, ya’ni xabarlashish, suhbatlashish, tanlov qilish, qo’llash, baholash, sheriklash, qo’shilmoq va boshqa harakatlarni amalga oshirish:

- Foydalanuvchilarning kontent yaratish, ya’ni matn, rasm, video, audio, surat, grafik, jadval, kod, havola va boshqa turdagি ma’lumotlarni qo’shish, tahrirlash, o‘chirish, tarqatish va boshqa harakatlarni amalga oshirish.

Ijtimoiy tarmoqlarning kun sayn hayotimizga kirib kelishi va kengayishi foydalanuvchilarning nomoddiy boyliklari, ya’ni o‘zlari haqidagi, kontent, aloqa va boshqa maqsadlar uchun foydalaniladigan ma’lumotlarini qamrab oladi. Bu nomoddiy boyliklar foydalanuvchilar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular o‘zlarining ijtimoiy, ma’naviy, madaniy, iqtisodiy va boshqa hayotiy sahifalarini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun, foydalanuvchilarning nomoddiy boyliklarini

<sup>1</sup> Как регулировать социальные сети: расширение границ гражданского права позволит вовлечь в него цифровые ресурсы: <https://daily.hse.ru/post/765>

huquqiy himoya qilish masalasi asrimizning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Foydalanuvchilarning ijtimoiy tarmoqlardagi nomoddiy boyliklarini huquqiy himoya qilish masalalari tahlil qilish jarayonida bir qancha bahsli holatlar yuzaga keladi. Olimlarni fikriga ko‘ra, “Nomoddiy boyliklar- shaxsga hosil bo‘lgan ma’lumotlar, rasmlar, videolar yoki boshqa sirlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin”<sup>1</sup>. “Iqdecision.com” saytida berilgan ma’lumotlarga ko‘ra “Shaxsga dahldor bo‘lgan ma’lumotlar nomoddiy boylik deb atab bo‘lmaydi. Chunki, nomoddiy boylik deb atashimiz uchun mazkur tarmoqlarni qonun bilan tartibga solishimiz zarur” deb hisoblaydi.

### **Nomoddiy boylikning tushunchasi va turlari:**

Nomoddiy boylik - bu shaxsning o‘zi haqida ma’lumot, fikr, ishonch, qiziqishlar, ilm, san’at, madaniyat, iqtisod va boshqa sohalardagi yaratgan, egallagan, foydalangan, tarqatgan, saqlagan va boshqa harakatlarni amalga oshirgan ma’lumotlar va natijalar to‘plami. Nomoddiy boylikning asosiy xususiyatilari quyidagilardan iborat:

- Nomoddiy boylik shaxsning ijtimoiy, ma’naviy, madaniy, iqtisodiy va boshqa hayot sahifalarini aks ettiradi, uning insonlik, shaxsiyat, huquq, erkinlik, mas’uliyat va boshqa qadriyatlarini aniqlaydi;

- Nomoddiy boylik shaxsning o‘zi tomonidan yaratilgan, egallangan, foydalangan, tarqatilgan, saqlangan va boshqa harakatlarni amalga oshirgan bo‘lishi mumkin, ya’ni uning mualliflik, foydalanish, tarqatish, saqlash va boshqa huquqlari bo‘lishi mumkin;

- Nomoddiy boylik shaxsning o‘zi tomonidan yoki boshqa shaxslar tomonidan qo‘llanilishi, o‘zgartirilishi uchun muallif ruxzsati zarur<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Перчаткина С.А., Черемисинова М.Е., Цирин А.М., Цирина М.А., Цоматова Ф.В. Социальные интернет-сети: правовые аспекты. URL: <http://www.center-bereg.ru/734.html> (дата обращения: 03.11.2014 г.).

<sup>2</sup> Kazakhstan, Uzbekistan Sign Treaty on Allied Relations, Agreement on .... <https://astanatimes.com/2022/12/kazakhstan-uzbekistan-sign-treaty-on-allied-relations-agreement-on-border-demarcation-to-foster-strategic-partnership/>.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston normativ-huquqiy hujjatlarida internet platformasida shaxsning nomoddiy boyligini himoya qilish yuzasidan aniq bandlar belgilanmagan. Taklif sifatida aytish mumkinki, dastlab milliy qonunchilikda nomoddiy boylik tushunchasi shaxsga nisbatan ochiqlanishi; internet platformasidagi ijtimoiy tarmoqlarda shaxsning nomoddiy boyliklarini aniq belgilash va qonuniy javobgarlikning (jarima) shaklini ishlab chiqish lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Как регулировать социальные сети: расширение границ гражданского права позволит вовлечь в него цифровые ресурсы: <https://daily.hse.ru/post/765>
2. Перчаткина С.А., Черемисинова М.Е., Цирин А.М., Цирина М.А., Цоматова Ф.В. Социальные интернет-сети: правовые аспекты. URL: <http://www.centerbereg.ru/734.html> (дата обращения: 03.11.2014 г.).
3. Kazakhstan, Uzbekistan Sign Treaty on Allied Relations, Agreement on .... <https://astanatimes.com/2022/12/kazakhstan-uzbekistan-sign-treaty-on-allied-relations-agreement-on-border-demarcation-to-foster-strategic-partnership/>.